

JAMIYAT, DAVLAT VA HUQUQNING MOHIYATI

Djumaboev Jaloliddin Zayniddinovich*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Jangovar tayyorgarlik sikli**katta o'qituvchisi, podpolkovnik**Tel: +99899 001 11 09*

Annotasiya: Mazkur maqolada jamiyat, davlat va huquqning paydo bo'lish mohiyatining ayrim jihatlariga ilmiy asoslangan ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: tarix, davlat, jamiyat, huquq, ibtidoiy jamiyat, patriarxal, shaxs, sinfiy nazariya.

Аннотация: В статье изложены научно обоснованные сведения о некоторых аспектах сущности возникновения общества, государства и права.

Ключевые слова: история, государство, общество, право, первобытный общество, патриархальный, индивид, классовая теория.

Abstract: This article provides scientifically based information on some aspects of the essence of the emergence of society, state and law.

Keywords: history, state, society, law, primitive society, patriarchal, individual, class theory.

Jamiyat – muayyan ehtiyoj va manfaatlarga ko'ra birlashgan kishilarning ma'lum tarzda tashkil topgan majmui. Insonlarni birlashtirgan jamiyat murakkab, tobora takomillashib boradigan oilaviy, milliy, sinfiy, ayrim guruhlar o'rtasidagi munosabatlar, manfaatlar asosida quriladi. Davlat jamiyatning tashkiliy elementidir. Jamiyat, jamiyat va inson, jamiyat va davlat xususidagi masalalar juda qadim zamonlardan ilm ahli tomonidan o'rganib kelinadi. Jumladan, Arastu (Aristotel), Forobiy kabi qadim mutafakkirlarning asarlarida inson, davlat va jamiyatning o'zaro munosabati bayon qilingan¹.

Jamiyat shaxslar (individdlar)ning oddiy yig'indisi emas. Balki u kishilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning mujassam majmui, mushtarak mahsuli sifatida maydonga chiqadi. Jamiyat – bu insonlarning umumiy manfaatlar hamda ehtiyojlari birligi asosida, ularni qondirish maqsadidagi birikuvi va kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar – aloqadorlik, hamkorlik ifodasidir. Jamiyat va shaxs o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik nihoyatda serqirra bo'lib, turli shakl va mazmunga ega. Shaxsning jamiyat bilan aloqasi, avvalo oila, ta'lim-tarbiya va mehnat jamoalari kabi boshlang'ich bo'g'inlar vositasida amalga oshadi. Jamiyatni katta bir vujud (organizm) deb qaraladigan bo'lsa, shaxs ana shu vujudning muhim hujayrasidir.

¹ *Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Ҳ. Б. Бобоев ва Х. Т. Одиқориев умумий таҳрири остида. – Т., 2000. – Б.49.*

Shaxs muayyan jamoalar, ijtimoiy guruhlar tarkibida shakllanadi, ijtimoiy aloqalar sohibi sifatida jismoniy va ma'naviy kamolotga yetadi. Jamiyatning umumiy ijtimoiy ongi, ma'naviyati, madaniy darajasi, siyosiy-huquqiy saviyasi har bir shaxs tarbiyasi va fe'l-atvoriga singib boradi. Shu bilan birga, inson o'zigagina xos xususiyat va fazilatlarga ham ega bo'ladi. Har bir inson tanho (individual) va u betakrordir. Jamiyat shaxsning hayot faoliyati, erkin rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy shart-sharoitlar yig'indisi hisoblanadi. Jamiyat va shaxs aloqadorligi dialektikasi shundan iboratki, har bir shaxsning erkin rivoji, o'z iste'dodi, qobiliyatlarini namoyon eta olishi pirovardida butun jamiyatning rivoji, ravnaq topishi demakdir. Jamiyat tarixiy nuqtai nazardan o'rganilganida, olimlarning uni turli xil yondashuvlar asosida tasniflaganini ko'rish mumkin. Avvalgi tarixiy-materialistik yondashuvga ko'ra, u ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarga, ya'ni quldorlik, feodal, kapitalistik va socialistik jamiyat bosqichlariga bo'lib o'rganilar edi. Jamiyatni tarixiy jihatdan o'rganishda esa qadimgi dunyo, o'rta asrlar, yangi tarix kabi davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Jamiyat insonlarsiz mavjud bo'lishi mumkin emas, chunki inson jamiyatning tuzilishi va rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Jamiyat insonlarning jamoa bo'lib yashashga tabiiy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan. Jamiyat paydo bo'lishidan to hozirgacha uning ko'plab shakllari mavjud bo'lgan. Jamiyatning boshlang'ich bo'g'inini oila tashkil etadi. Oila jamiyatning mavjudlik shartidir. Davlat, huquq va jamiyat o'zaro uzviy bog'liqdir. Bu o'rinda «jamiyat» kengroq tushuncha. Jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida davlat paydo bo'lgan. Davlat siyosiy hukmronligini amalga oshirish uchun uning irodasi huquq tarzida shakllantirilgan. Mamlakatda ijtimoiy munosabatlar qanchalik batartib bo'lsa, jamiyat va davlat vazifalari shunchalik aniq ado etib boriladi. Kishilik jamiyatini shartli ravishda ikki turga, ya'ni davlatsiz va davlatli jamiyatga ajratish mumkin. Jamiyatning eng qadimgi va dastlabki turi davlatsiz jamiyat bo'lib, u *ibtidoiy jamiyat* deb nomlangan. U davrlarda insonlarning ongida davlat to'g'risida hali biror tushuncha va tasavvur ham, bunga ehtiyoj ham bo'lmagan.

Ibtidoiy jamiyatda ijtimoiy hokimiyat. Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlar urug' jamoasiga birlashib yashaganlar, sodda mehnat qurollari va mahsulotlariga ega bo'lganlar. Ular topgan mahsulot kundalik ehtiyojlari uchun zo'rg'a yetgan. Hyech bir urug' a'zosining boshqalar ustidan hukmronligi, ya'ni hokimiyat bo'lmagan. Jamoadagi barcha ishlar umumiy yig'ilishda hal qilingan. Urug' oqsoqollari urug'doshlar bilan bamaslahat ish tutganlar. Odamlar shu jamoada amal qiladigan xulq-atvor va yurish-turish qoidalariga rioya qilganlar. Agar jamoada o'rnatilgan axloq va odat qoidalari buzilsa, bu holat butun urug' yig'inida muhokama qilingan va qoidabuzarga nisbatan tegishli jazo belgilangan. Alohida muhim ishlar, harbiy yurishlar, ov, mulkni bo'lish masalalarining hal etilishi uchun oqsoqollar kengashi chaqirilgan va muhokama etilib, ko'pchilikning fikri asosida yagona to'xtamga kelingan. Oqsoqollar kengashini

asosan jamoaning katta yoshdagi a'zolari tashkil etganlar. Ibtidoiy jamiyatdagi ijtimoiy hokimiyat jamoa a'zolari tomonidan saylangan oqsoqollar tomonidan amalga oshirilgan. Har bir qabiladan bittadan oqsoqol saylangan va ular oqsoqollar kengashini tashkil qilgan. Kengashni esa barcha oqsoqollar ichidan saylangan, yoshi ulug', tajribali, obro'li, dono kishi boshqargan. Ibtidoiy jamiyatda majburlov apparati bo'lmagan, balki jamoani oqsoqollar o'zlarining shaxsiy obro'ga tayangan holda boshqarganlar.

Ibtidoiy jamiyatda ijtimoiy normalar. Ibtidoiy jamiyatda ijtimoiy munosabatlar odat va axloq normalari bilan tartibga solingan va ularga amal qilingan. *Odat normasi* kishilar tomonidan ko'p marta takrorlanishi natijasida odatiy holga aylangan va shu tariqa avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xulq-atvor qoidalaridir.

Axloq normasi – ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, sha'n, qadr-qimmat, adolat va nohaqlik, burch va mas'uliyat haqidagi axloqiy tushunchalarga muvofiq ravishda jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor qoidasidir. Odat va axloq normalari ibtidoiy jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy me'yoriy qoida bo'lib xizmat qilgan. Odat va axloq normalari buzilgan taqdirda, bu hol oqsoqollar kengashida muhokama qilingan hamda sodir etilgan harakatning xavflilik darajasiga qarab, turli xil jazolar qo'llanilgan. Ibtidoiy jamiyatda jazoning jamoa izzasi, darra urish va qabiladan haydab yuborish kabi turlari bo'lgan. Qabiladan haydab yuborish eng og'ir jazo hisoblanib, hozirgi vaqtdagi o'lim jazosi bilan teng bo'lgan, chunki shaxs qabiladan haydalgach, ochlikdan o'lib ketgan yoki yovvoyi hayvonlarga yem bo'lgan.

Davlat va huquqning paydo bo'lishi haqidagi tushuncha va tasavvurlar dunyo olimlari tomonidan turlicha talqin qilinadi. Har bir olim bu borada o'z nuqtai nazarini bildiradi. Ushbu nazariyalarning birortasini ham noto'g'ri deb bo'lmaydi, chunki fan o'zaro qarama-qarshi fikrlar asosida rivojlanadi va takomillashadi. Davlat va huquqning paydo bo'lishi masalalariga to'xtalishdan oldin tarixga qisqacha murojaat qilish joiz. Negaki, davlat paydo bo'lmagan davrda ham yer yuzida hayot bo'lgan va insonlar turmush kechirganlar. Davlat paydo bo'lguniga qadar insoniyat davlatsiz jamiyat, ya'ni ibtidoiy jamiyat sharoitida turmush kechirgan. Insoniyat ibtidoiy jamiyatdan to davlat paydo bo'lguniga qadar ibtidoiy odamlar to'dasi, urug'chilikning vujudga kelishi, qabiladoshlik va ibtidoiy jamoaning yemirilishi kabi davrlarni boshdan kechirgan. Zamonlar o'tishi bilan davlatsiz jamiyat hisoblangan ibtidoiy jamiyat o'z o'rnini davlatli jamiyatga bo'shatib bergan va shu asnoda davlat vujudga kelgan, ayni vaqtda, huquq ham shakllangan. Insoniyat rivojlanib, asta-sekinlik bilan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik singari ishlar bilan shug'ullanishni boshlagani sababli oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishga o'tilgan. O'sha davrda shakllana boshlagan ilk dehqonchilik jamoalari insoniyatning rivojlanish yo'nalishini belgilab berdi. Bu davrda insonlar o'z kundalik ehtiyojlaridan ortiq

qo'shimcha mahsulot ishlab chiqara boshladilar. Qo'shimcha mahsulotning ishlab chiqarilishi va uning ayrim kimsalar, qabila boshliqlari va harbiy sarkardalar tomonidan o'zlashtirilishi xususiy mulkning shakllanishi hamda ilk davlatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Davlat va huquq alohida emas, balki bir vaqtda paydo bo'lgan va shu sababli bir-birini to'ldirib turadi. Davlat huquqsiz, huquq esa davlatsiz mavjud bo'la olmaydi, ular bir-birini taqozo etadi. Davlatning paydo bo'lishi haqida olimlar turli xil nazariyalarni ilgari surib, o'z g'oyalarini isbotlashga harakat qiladilar. Jumladan, davlatning paydo bo'lishi haqida diniy, patriarxal, organik, shartnoma, zo'rlik, sinfiy, psixologik, irrigasiya nazariyalari mavjud.

Diniy (teologik) nazariya o'rta asrlarda paydo bo'lgan. Hozirgi davrda boshqa nazariyalar bilan birga Yevropa va boshqa qit'alarga tarqalgan. Mazkur nazariya asoschilari A. Avgustin, F. Akvinskiy bo'lib, ular davlatning xudo tomonidan yaratilganligi xususidagi fikrlarni bildiradilar. Ularning talqinicha, butun hokimiyat xudoga tegishli, davlatni boshqarayotgan shaxs, ya'ni hukmdor podsho xudoning yerdagi vakili hisoblanib, uning amriga itoat qilmaslik xudoga shak keltirish bilan barobar.

Patriarxal nazariya asoschilarining fikricha, davlat oila andozasi asosida vujudga keladi, ya'ni davlat oilaning taraqqiy etishi natijasida paydo bo'lgan. Boshqacha aytganda, dastavval oila paydo bo'lgan, so'ngra oila o'sib urug'ga, urug' qabilaga, qabila esa davlatga aylangan. Monarx hokimiyati esa go'yo oilaning barcha a'zolariga rahbarlik qiladigan otadan meros bo'lib o'tgan. Ushbu nazariya Yunoniston (Qadimgi Gresiya)da paydo bo'lgan va Aristotel asarlarida asoslab berilgan. U XVII asrda ingliz olimi Filmerning «Patriarx» asarida rivojlantirilgan. Muallif Injilga asoslanib, Odam atoning hokimiyatni Xudodan olib, katta o'g'li Patriarxga, u esa o'zining avlodlari bo'lgan qirollarga berganligini isbotlashga harakat qilgan.

Organik nazariya ingliz olimlari Spenser, Vorms va Preys tomonidan ilgari surilgan, uning mohiyati davlatning biologik organizm kabi paydo bo'lib, so'ngra rivojlanishini ifodalaydi. Mualliflarning ta'rificha, kishilar davlatni tirik organizm kabi yaratadilar, davlat institutlari esa inson organizmining a'zolariga o'xshatiladi, ya'ni hukmdorlar – bosh miya, aloqa va moliyaviy sohalar – qon tomirlari kabi organizm faoliyatini ta'minlab turadi, xalq – inson qo'llariga o'xshatiladi. Ushbu nazariyaning afzalligi shundaki, unda, *birinchidan*, davlatga yagona bir butun, o'zaro bog'liqlikdagi organizm sifatida qaraladi, *ikkinchidan*, davlat ichki mexanizmining takomilida ularning raqobatini tan oladi, *uchinchidan*, davlatning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalardan farqli ravishda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Shartnoma nazariyasi XVII va XVIII asrlarda vujudga kelgan. Ushbu nazariya vakillarining ta'kidlashlaricha, hokimiyat xalq tomonidan, xalqning monarx bilan kelishuvi natijasida o'rnatiladi. Gollandiyada ushbu nazariyani Gugo Grosiy va Spinoza, Angliyada Lokk va Gobbs, Fransiya Jan Jak Russo, Rossiyada A. N. Radishchev rivojlantirgan. J. J. Russo ushbu nazariya to'g'risida «Ijtimoiy shartnoma»

nomli kitob yozib, agar monarx hokimiyatni suiiste'mol qilsa, xalq qo'zg'olon ko'tarishi va monarxni taxtdan ag'darishga haqli ekanligini aytgan.

Zo'rlik nazariyasi vakillarining fikriga ko'ra (Gumplovich va Kautskiy), davlatning kelib chiqishida zo'rlik omili – bir xalqni boshqa xalq bosib olishi yotadi. Davlat g'olibning hokimiyatini mustahkamlash uchun tuziladi.

Sinfiy nazariya XIX asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropada vujudga kelgan bo'lib, O'zbekistonda 1990 yillargacha hukmronlik qilgan. Uning asoschilari K. Marks, F. Engels va V. I. Lenin edi. Ularning fikricha, davlat iqtisodiy sabablar, ijtimoiy mehnat taqsimoti, qo'shimcha mahsulot va xususiy mulkning shakllanishi, jamiyatning qarama-qarshi iqtisodiy manfaatlarga ega sinflarga ajralishi tufayli vujudga kelgan.

Psixologik nazariya tarafdorlari G. Tarrd, Z. Freyd va L. I. Petrajiskiydir. Bu nazariyada davlatning kelib chiqishi kishilarning hukmronlikka va bo'ysunishga bo'lgan ehtiyoji bilan izohlanadi. Rus olimlari Korkunov va Petrajiskiy davlat insonning bo'ysunishga intilish instinkti tufayli paydo bo'ladi, deb hisoblaydilar. *Psixologik nazariya*da xalq alohida xususiyatlarga ega bo'lgan kishilarga bo'ysunishni istovchi sustkash omma deb hisoblanadi.

Irrigasiya nazariyasida davlatlarning kelib chiqishi, ularning ilk shakllari Sharqda ulkan irrigasiya inshootlarining barpo etilishi va ulardan foydalanish bilan bog'liq holda ifodalanadi. Ushbu nazariya nemis olimi Vittifogelning «Sharq istibdodi» asarida yoritib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston hududida davlatning paydo bo'lishi jarayoni bevosita irrigasiya nazariyasi bilan bog'liq, degan qarashlar mavjud.

Huquqning paydo bo'lishi haqida olimlar turli xil nazariyalarni ilgari suradilar. Ularning ayrimlariga qisqacha to'xtalamiz.

Tabiiy huquq nazariyasi eng qadimiy hisoblanadi. Ushbu nazariya vakillari huquq o'zida adolatning mutlaq, o'zgarmas ibtidosini mujassam etganligiga tayanadilar. Ularning fikricha, huquq tabiatdan paydo bo'lgan, uni hyech kim o'ylab topmagan, u xuddi inson kabi tabiiydir.

Huquqning tarixiy nazariyasi. Mazkur nazariya vakillari huquqning tabiatan mavjudligini inkor etadilar. Ularning fikricha, huquq tarixan paydo bo'lgan va rivojlangan, u yerga ekilgan urug' kabi xalqning ongida o'sib boradi va adolat, qonunlar shaklida namoyon bo'ladi. Xalqning tarixiy hayoti huquqni qanday ko'rinishga keltirsa, u shunday bo'lib qoladi.

Huquqning psixologik nazariyasi vakillarining ta'kidlashlaricha, huquqning kelib chiqishi va rivojlanishi shaxs yoki shaxslar guruhining psixologiyasi bilan bog'liq. Huquq psixologik yo'nalishlar, turli kechinmalar, hissiyotlar va instinktlar mahsulidir.

Huquqning diniy (teologik) nazariyasi XII–XIII asrlarda vujudga kelgan bo'lib,

uning asoschisi Foma Akvinskiy hisoblanadi. Akvinskiy davrida amaldagi huquqning asosini ilohiy qonunlar va tabiiy huquqlar tashkil qilishi e'lon qilingan. Bu nazariyani islom dini va katolik cherkovining namoyandalari qo'llaydilar.

Huquqning kelib chiqishini tushuntirishda *diniy nazariya* tarafdorlari asosiy qonunlar insonga xudo tomonidan diniy kitoblarda beriladi, degan fikrga tayanadilar. Masalan, Qur'on, Injil, Tavrot, Zabur shular jumlasidan.

Huquqning sinfiy nazariyasi vakillarining ta'kidlashlaricha, huquq tabiiy ham, tarixan ham, hatto psixologik holda ham vujudga kelmagan, balki hukmron sinfning manfaatlarini himoya qilish uchun davlat bilan bir vaqtda siyosiy maydonga chiqqan. Ularning talqinicha, huquqning paydo bo'lishida uchta bosqich mavjud:

- odatning mutlaq hukmronligi davri;
- odat bilan huquqning bir vaqtda amalda bo'lish davri;
- huquqning mutlaq hukmronlik davri.

Mazkur nazariya vakillari huquqning tezda odat o'rnini egallamaganligi, balki vaqt o'tishi bilan asta-sekin odat huquqqa o'z o'rnini bo'shatib berganligini isbotlashga harakat qilganlar. Sinfiy nazariya vakillari huquq paydo bo'lishining asosiy sababi – odat normasiga asoslanib, hamma teng huquqli bo'lganligini, bu esa iqtisodiy jihatdan hukmron sinfga, ya'ni quldorlarning manfaatlariga to'g'ri kelmaganligi tufayli undan voz kechilganligini ta'kidlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / X.T.Odilqoriyev, I.T.Tulteyev va boshq.; prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. — Toshkent.: "Sharq", 2009.
2. Davlat va huquq nazariyasi. Ikki jildli. 1-jild. — T., 2001.
3. Проблемы общ ей теории права и государства. Под общ.ред.академика В.С.Нерсисянца. — М.: «Норма», 20084. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. — T. 2007
4. Davlat va huquq nazariyasi / / professorlar Q. Boboyev va Q. Odilqoriyevlarning umumiy tahriri ostida. — T., 2000.